

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risidagi Farmoni (PF-37-son) ning 2-ilovasiga muvofiq, **“O‘zbekiston — 2030” strategiyasining Barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash yo‘nalishi bo‘yicha 2024-yilga mo‘ljallangan**

**AMALIY TADBIRLAR REJASIDA BERILGAN VAZIFALAR BO‘YICHA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR**

Ilova bandi	Vazifalar	AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR
7.1	Mahalliy avtomobilsozlik sanoatida barcha mavjud va yangi ishlab chiqaruvchilarga shaffof va teng sharoitlarni yaratish.	O‘zbekiston Respublikasida mahalliy avtomobilsozlik sanoatida barcha mavjud va yangi ishlab chiqaruvchilarga shaffov va teng sharoitlarni yaratish maqsadida, qaror loyihasi ishlab chiqilib, o‘rnatilgan tartibda tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishildi. Qaror loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan 2024-yil fevral oyida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga xat bilan kiritildi.
7.2	Jizzax viloyatida Xitoyning “BYD” kompaniyasi bilan hamkorlikda 10 mingta elektromobil va gibridda avtomobillarni to‘liq siklda ishlab chiqarish loyihasini ishga tushirish.	Xitoyning “BYD” kompaniyasi bilan hamkorlikda elektromobil va gibridda avtomobillarni to‘liq siklda ishlab chiqarish loyihasi 2024yilning 27-iyun kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning Jizzax viloyatiga rasmiy tashrifi doirasida “BYD Uzbekistan Factory” MChJ zavodi ishga tushirildi. O‘zbekiston Respublikasida ilk bor Chazor va Song Plus Champion elektromobil va gibridda avtomobillar modellari ishlab chiqarilishi boshlandi.
7.4	Jizzax viloyatida “ADM Jizzakh” korxonasi negizida Koreyaning “KIA” brendi ostida “KIA Sonet” rusumdagisi avtomobili to‘liq (CKD) turkumda ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Shu bilan birga, 2024 yilning 8-aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev “ADM Jizzakh” avtomobil zavodida bo‘lib, ishlab chiqarish faoliyati, tashkil etilgan shtamplash, payvandlash, bo‘yash va yig‘ishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish jarayonlari bilan tanishdi. Shuningdek, Davlatimiz rahbari zavodda	2024 yil I choragida Jizzax viloyatida “ADM Jizzakh” korxonasi negizida Koreyaning “KIA” brendi ostida “KIA Sonet” rusumdagisi avtomobili to‘liq (CKD) turkumda ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Shu bilan birga, 2024 yilning 8-aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev “ADM Jizzakh” avtomobil zavodida bo‘lib, ishlab chiqarish faoliyati, tashkil etilgan shtamplash, payvandlash, bo‘yash va yig‘ishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish jarayonlari bilan tanishdi. Shuningdek, Davlatimiz rahbari zavodda

		to‘liq turkumda ishlab chiqarish boshlangan yangi “KIA Sonet” avtomobilini ko‘zdan kechirdi.
7.5	Andijon viloyatida “Metall buyumlarni quyish zamonaviy sexini ishga tushirish” loyihasining 2-bosqichini ishga tushirish.	2024 yil 30 may kuni Andijon viloyatidagi “Auto Spring Components” MCHJ zavodida “Zamonaviy quyuv ishlab chiqarishini tashkil etish va avtomobil cho‘yan detallariga mexanik ishlov berishni o‘zlashtirish” loyihasining 2-bosqichi ishga tushirilib, ilk mahsulotlar ishlab chiqarildi.
7.6	“Oniks” va “Treker” avtomobillarining mahalliylashtirish darajasini o‘rtacha 55 foizga, milliy traktor — kamida 35 foizga, osma texnika va tirkamalar — 60 foizga yetkazish.	2024 yil yakuni bo‘yicha “O‘zavtosanoat” AJ tomonidan Asaka shahridagi “UzAuto Motors” AJda ishlab chiqarilayotgan “Oniks” va “Treker” avtomobillarining mahalliylashtirish darjasи 55 foizga, Toshkent viloyati Chirchiq shahrida joylashgan “Toshkent traktor zavodi” MCHJda osma texnika va tirkamalarning mahalliylashtirish darjasи 60 foizga yetkazilgan. Shuningdek, Milliy traktoring mahalliylashtirish darajasidagi maqsadli ko‘rsatkichga, 2025 yil yakuni bilan erishish maqsad qilib olingan.
50-band	Farmoning 2-ilova 50-band. Agrar sohani zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta’minlash choralarini ko‘rish topshirig‘i berilgan.	Agrar sohani zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnikalariga bo‘lgan talabni aniqlash maqsadida “Toshkent traktor zavodi” MCHJ tomonidan Qoraqolpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat hokimliklari va Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda “O‘zagrolizing” AJga murojaatlari yuborilgan. Respublikada jami qishloq xo‘jaligi texnikasiga bo‘lgan talab hududlar kesimida (2024 yil uchun) 10 500 dona texnikaga talab borligi aniqlandi. Qishloq xo‘jaligi texnikalarini ishlab chiqarish va xaridorlarga yetkazib berish ko‘rsatkichlari belgilanib olindi. Shuningdek, mashinasozlik klasteri tomonidan sabzavotchilik, polizchilik tadbirlari tomonidan bog‘dorchilik va uzumchilik yo‘nalishlarini rivojlantirishga urg‘u berish maqsadida respublikada mini traktorlar va motokultivatorlarni mahalliylashtirish bo‘yicha tegishli ishlar amalga oshirilmoqda.

	<p>Motokultivatorlar bozorini o‘rganish maqsadida O‘zbekistonda eng ommabop bo‘lgan 7 va 15 ot kuchiga ega bo‘lgan motokultivatorlarni xaridorlarga taqdim etish rejalashtirilgan.</p> <p>Minitraktorlar ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish yuzasidan Xitoyning LOVOL va Dongfeng kompaniyalari bilan 25 dan 50 ot kuchigacha bo‘lgan minitraktorlarni mahalliylashtirishni tashkil qilish bo‘yicha muzokaralar olib borilmoqda. Minitraktor kabinasini ishlab chiqarishni Chirchiq shahridagi qishloq xo‘jaligi mashinasozligi klasterida tashkil etish orqali mahalliylashtirishga erishish choralar ko‘rilmoxda.</p> <p>“Shandong Heavy Industry Group” kompaniyasi bilan hamkorlikda O‘zbekistonda tijorat, qurilish va qishloq xo‘jaligi texnikalari ishlab chiqarilishi o‘zlashtiriladi.</p> <p>Qishloq xo‘jaligi texnikalari yo‘nalishida “Weichai Lovol Intelligent Agrocultural” kompaniyasi bilan hamkorlikda 100 ot kuchli traktorlarni keng ko‘lamli ishlab chiqarish bo‘yicha kelishuvga erishildi.</p>
--	---